

ADVOKATURADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Boltaboyeva Dilnoza Anvarbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti "Huquq" kafedrası Yurisprudensiya yo'nalishi

242-guruh talabasi.

Urganch. O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18964452>

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokatura huquqiy institutining faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, mijozlar bilan muloqotida shaffoflikni ta'minlash, ularning faoliyatini raqamlashtirish, shu orqali vaqt va boshqa resurslarni tejash xususida gap boradi.

Shuningdek hozirda advokatlik faoliyatini olib borishni osonlashtirishuvchi qonun hujjatlarining mazmuni va shu asosda tashkil etilgan yangi platformalar ularning avfzalliklari, advokatlik uchun talabgorlarga yaratilgan qulayliklar o'rin olgan. Advokatlarga litsenziya berish, ularni o'qitib olis, attestatsiyadan o'tkazish mazkur faoliyatlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni ko'rib chqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, litsenziya, attestatsiya, QR-kod, onlayn konsultatsiyalar, ma'lumotlar bazasi, sun'iy intellekt, huquqiy tahlil dasturlari.

Annotation. This article discusses the introduction of modern technologies in the activities of the legal institute of the bar, ensuring transparency in communication with clients, digitizing their activities, thereby saving time and other resources. Also, the content of legal documents that currently facilitate the conduct of advocacy activities and the new platforms created on this basis, their advantages, and the conveniences created for applicants for advocacy are discussed. The role of digital technologies in the implementation of these activities, including licensing, training, and certification of lawyers, is considered.

Keywords: Digital technologies, license, certification, QR code, online consultations, database, artificial intelligence, legal analysis programs.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida inson faoliyatining deyarli barcha sohalari raqamli tizimlarga o'tmoqda. Barcha sohalarga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ularni raqamlashtirish, buning natijasida aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kuchaytirish va bir qator sohalar vakillari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, huquq sohasida, xususan advokatura faoliyatida ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yildan-yilga dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Advokatura-bu fuqarolar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi muhim institut bo'lib, uning samarali faoliyati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Barcha sohalarga zamonaviy axborot-texnologiyalarini joriy etish orqali ularni raqamlashtirish, buning natijasida aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kuchaytirish va bir qator sohalar vakillari faoliyatining samaradorligi oshirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalar amalga oshirishining tizimligi va izchilligini ta'minlash, buning doirasida advokatura faoliyatiga axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga olib chiqish zarurati mavjud.

Mazkur bosqichga ko'tarilishda mazkur faoliyatlar zaruriy o'rin egallaydi.

Elektron hujjatlar almashinishi- sud, tergov organlari va mijozlar bilan hujjatlar elektron shaklida olib borilishi;

Onlayn konsultatsiyalar-advokatlar videoaloqa yoki maxsus platformalar orqali mijozlarga masofadan turib maslahatlar berish;

Sud jarayonida masofaviy ishtirok-sud jarayonida masofadan turib qatnashish imkoniyati;

Ma'lumotlar bazalari va elektron arxivlar-ish hujjatlari elektron tarzda saqlanadi va istagan paytda foydalanuvchilar ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'lishlari;

Sun'iy intellekt asosidagi huquqiy tahlil dasturlari-advokatlarga sud amaliyoti va qonunchilikdagi o'zgarishlarni tahlil qilishda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarni advokatura tizimiga joriy etish bir tomondan, advokaturalarning ish jarayonini soddalashtirsa, ikkinchi tomondan, huquqiy xizmatlarning sifatini oshishiga sababchi bo'ladi. Shu bois ushbu mavzu zamonaviy sharoitda dolzarb bo'lib, mamlakatimizda kechayotgan "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi doirasida ham advokatura faoliyatini raqamlashtirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek mazkur faoliyatini amalga oshirish borasida 2022-yil 30-may sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq bir qator vazifalar belgilangan.

1.Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va inson omilini bartaraf etish orqali advokatura institutining davlat organlari va boshqa tuzilmalardan mustaqilligini oshirish;

2.Advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash maqsadida advokatura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari o'rtasida electron ma'lumot almashinuvini samarali yo'lga qo'yish;

3.Advokatlar tomonidan maxsus axborot dasturi orqali jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn yuridik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish;

4.Advokatura faoliyati uchun zarur axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlarni shakllantirish hamda ularda saqlanadigan ma'lumotlarning kompleks himoya qilinishi va maxfiyligini ta'minlash choralari ko'rish;

Advokatura institutiga yaqindan ko'mak berish maqsadida "license.gov.uz" axborot tizimi yaratildi. Bunda:

- advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan talabgorning malaka imtihanini muvaffaqiyatli topshirganligi haqidagi qaror va tegishli hujjatlar "Litsenziya" axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi;

- malaka imtihanini muvaffaqiyatli topshirgan talabgorga advokatlik litsenziyasini olish uchun tegishli adliya organiga murojaat qilmasdan istalgan vaqtda "Litsenziya" axborot tizimi orqali olish imkoniyati yaratildi;

- litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilgan yoki tugatilgan holatlar mazkur axborot tizimida avtomatik ravishda qayd etib boriladi.

2023-yil 1-fevraldan boshlab:

a) advokatlik tuzilmalari tomonidan advokatlarga muayyan ishni olib borish uchun beriladigan an'anaviy shakldagi order maqomiga teng bo'lgan maxsus QR-kod qo'yilgan "Elektron advokatlik orderi"ni berish amaliyotiga joriy qilindi.

b) order muqobillik asosida qog'oz shaklda rasmiylashtirilganida, ushbu order haqidagi ma'lumotni "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritish majburiy hisoblanadi.

d) advokat so'rovi shakliga qo'yilgan talablar, shu jumladan unga orderining ko'chirma nusxasini ilova qilish, orderni qayd etish daftarini yuritish talablari bekor qilindi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, Adliya vazirligi Advokatlar palatasi bilan palatasi bilan birgalikda 2023 –yil 1- yanvardan "Yuridik yordam" axborot tizimi ishga tushirildi. Mazkur axborot tizimi orqali advokatlik maqomini olishda talabgorlar malaka imtixonini topshirish uchun elektron tartibda murojaat qilish va malaka imtixoni jarayonlarini kuzarib borish mumkin.

Tizim orqali respublikada faoliyat yuritayotgan advokatlar reestri, ularning shaxsiy elektron kabineti yaratilib, advokatlar tomonidan elektron advokat orderini rasmiylashtirish, davlat organlari va tashkilotlariga advokatlik so'rovlarini jo'natish va arizalar berilishi mumkin.

Bundan tashqari, fuqarolar tomonidan axborot tizimi orqali advokatlar to'g'risida, ularning maqomi haqidagi ma'lumotlarni olishi;

Advokat reytingi aniqlashi; advokatning faoliyatini baholash va advokat haqida o'z fikrlarini izoh tariqasida yozib qoldirish;

Advokatura sohasiga oid qonun hujjatlari, yangiliklar, statistik ma'lumotlar bilan tanishishlari mumkin bo'ladi.

Ushbu tizimning ishga tushirilishi advokaturaga kirishda ortiqcha qog'ozbozlikni bartaraf etadi, advokatlar faoliyatini yengillashtiradi, fuqarolarga hamadvokatni oson topishga va ular faoliyatini baholashga yordam beradi.

Hozirgi axborot davrida har bir kasbiy sohada malaka oshirish va baholash jarayonlari yangi texnologiyalarni talab qiladi. Yuridik xizmat xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirishdagi mavjud byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ortiqcha qog'ozbozlikning oldini olish hamda ushbu jarayonga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrdagi 244-son qarori bilan tasdiqlangan Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq Yuridik xizmat xodimi lavozimiga qabul qilingan shaxslar ishga qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida attestatsiyadan o'tkazilishi kerak.

Oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyin olingan mutaxassislik bo'yicha birinchi marta ishga kirgan shaxslar mutaxassislik bo'yicha ishlagan ikki yillik muddat tugagan vaqtdan boshlab uch oydan kechikmay attestatsiyadan o'tkazilishi kerak.

VazirlarMahkamasi 2023 yil 7 iyundagi mazkur nizomga ilova qili o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qarori ham mazkur faoliyatni muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Unga muvofiq:

Talabgor haqidagi zarur hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy organlari tomonidan "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi hamda "Yurist-adliya" elektron tizimi orqali olinadi. Yuridik xizmat xodimini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi xat kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddatda ko'rib chiqiladi. Suhbat jarayonida berilgan savollar va talabgorning javoblari "Yurist-adliya" elektron tizimida qayd etiladi". Attestatsiya komissiyasining qarorlari attestatsiya komissiyasining majlisida hozir bo'lgan a'zolarining "Yurist-adliya" elektron tizimi orqali berilgan ballari natijasi bo'yicha qabul qilinadi.

Attestatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma reyestri uning seriya raqami va amal qilish muddati ko'rsatilgan holda "Yurist-adliya" elektron tizimida avtomatik ravishda yuritiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, advokaturada raqamli texnologiyalarni joriy qilish bir necha ijobiy natijalarga olib kelmoqda;

Birinchidan, barcha jarayonlar elektron tarzda, ochiq olib borilganligi sababli korrupsion holatlar kamaymoqda;

Ikkinchidan, hujjatlar, arizalar va ularning javoblari onlayn shklada kuzatib borish ish jarayonini tezlashtiradi;

Uchinchidan, raqamli vositalar orqali advoka mijo z bilan doimiy aloqada bo'lish imkoniyat ga ega bo'ladi.

Bu usullar advokatlar uchun qulaylik yaratib, ularning vaqtini tejaydi, hamda baholashda subyektivlikni kamaytiradi. Shu tariqa, zamonaviy texnologiyalar advokatlik kasbining obro'sini kuchaytirish va xizmatlarining sifat darajasining oshishida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda desak adashmagan bo'lamiz.

Amalga oshirilayotgan barcha islohotlar mazkur jarayonlarda inson omilini kamaytirish, qonun hujjatlar faqat deklarativ emas real huquqiy davlat qurishning poydevori bo'lib xizmat qilishi, insonlarning huquq va erkinliklarini samarali ro'yobga chiqarish, Mijoz va Advokat o'rtasidagi munosabatlar hech qanday to'sqinliklarsiz va aralashuvlarsiz amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalar advokatlarga faoliyatini eng yuqori sifat ko'rsatkichlarga olib chiqishga turki bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. –Toshkent: TDYU, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining "Advakatura to'g'risida"gi Qonuni 1996-yil 27-dekabr,349-I-sonO'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-modda; 2001-y., 1-2-son, 23-modda; 2003-y., 5-son, 67-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 37-38-son, 280-modda; 2008-y., 52-son, 514-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 10.08.2023-y., 03/23/862/0578-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2022-yil 30-may,
4. PQ-263-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.05.2022-y., 07/22/263/0456-son)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 2022-yil 30-may,PQ-263-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son; 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son)